

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TINGLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Abdug‘aniyeva Mavjuda Akram qizi

Navoiy Davlat Pedagogika instituti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada insonning muhim sezgi organlaridan biri sanalgan tinglash qobiliyati va uning inson hayotining turli davrlarida, xususan, maktabgacha yosh davridagi rivojlanishi, takomillashish bosqichlari asoslar orqali o‘rganilib chiqildi. Insonning eshitish organlarida yuzaga keladigan jiddiy muammolar va ularning inson ongiga, fikrlash sistemasiga, yosh xususiyatlari qay darajada ta’sir qila olishi ko‘rib chiqildi, kerakli adabiyotlar ilova qilinib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Eshitish sistemasi, qulqoq ichki tuzilishi, bolalarda eshitish, eshitishdagi muammolar, tinglash qobiliyati, tezkor tinglash, sezgi organlari, fikrlash sistemasi, yosh xususiyatlari, ta’sir va boshqalar.

ABSTRACT

In the article, the ability to listen, which is considered one of the important sensory organs of a person, and the stages of its development and improvement during a person’s life were studied through the basics. The serious problems that arise in the hearing organs of a person and how they can affect the human mind, thinking system, and age characteristics were considered, and the necessary literature was attached.

Keywords: Auditory system, internal structure of the ear, hearing in children, hearing problems, listening ability, quick listening, sensory organs, thinking system, age characteristics, influence and others.

KIRISH

Insoniyatni tashqi muhit bilan bog‘laydigan, ijtimoiy hayotga jalb qiladigan va uning yashashi uchun eng muhim qonuniyatlardan biri, insonlarning sezgi organlari orqali ta’sirlarni qabul qilib, bosh miya katta yarimsharlari va miya qismlari orqali ya’ni markaziy nerv sistemasi orqali ta’sirga javob qaytarish reaksiyasidir. Insonda qancha miqdorda va qay turdagil sezgilar mavjud ekanligi bizga yaxshi ma’lum va shu sababdan bu to‘g‘risida to‘xtalib o‘tirmaymiz, ammo bu sezgilarning tanamizda amalga oshiradigan harakati va bajaradigan vazifasi biz uchun o‘ta muhim va bugun biz ushbu maqolada bularga birma-bir to‘xtalib o‘tamiz. Xususan, eng muhim sezgi

organi sanalgan eshitish tizimi, uning yoshga doir xususiyatlari, uchrashi mumkin bo‘lgan kasalliklar bular jumlasidandir.

ASOSIY QISM

Tinglash nutq faoliyatining retseptiv asosiy qismi sanalib, uning yordamida eshitish analizatorining ishlashi yordamida nutq xabari qabul qilinadi va keyinchalik axborotni qayta ishslash jarayoni amalga oshiriladi. Tinglashning maqsadi faoliyat mavzusida amalga oshiriladi va semantik aloqalarni aniqlash, so‘zlovchi tomonidan ishlab chiqarilgan qulq qorqali qabul qilingan nutq xabarini tushunish, bu fikrni anglash va tiklashdan iborat.” Faoliyat turi sifatida tinglash maktabgacha yoshdagagi bolaning ta’lim va bilim faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Axborotni boyitish, madaniy darajani oshirish uchun axborot olish manbai bo‘lib xizmat qiladi; estetik va madaniy ehtiyojlarni qondirish vositasi, shuningdek, tartibga solish vazifasini bajaradi, chunki tinglash jarayonida olingan ko‘rsatmalar inson harakatlarini aniqlaydi. Eshitish-maktabga kiradigan bolalar uchun muhim nutq faoliyati, chunki uyushgan faoliyatning katta qismi axborot orqali tushuniladi. Maktabgacha ta’lim dasturlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular nutq faoliyatida bolalarning nutq qobiliyatlari uchun maxsus ta’lim bermaydilar. Ko‘pincha, bolalarning ta’lim faoliyati uchun nutq tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha ishlar til birliklarini (nutq madaniyati, lug‘at ishi, nutqning grammatik tuzilishi), ushbu til birliklari bilan ishslash usullarini o‘rganishga qaratilgan. Hech bir dasturda nutq faoliyatining barcha tarkibiy qismlari (tinglash) bo‘yicha ishlarning mazmunini tizimli ravishda ifodalash mumkin emas. Ko‘pgina dasturlar og‘zaki nutq (tinglash) yozma nutqni (o‘qish va yozish) assimilyatsiya qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilmasligini hisobga olmagan holda, o‘qish va yozishni o‘rganish uchun nutq tayyorligini birlashtiradi. Ushbu vazifalar boshqa faoliyat turlarida yordamchi, yordamchi sifatida amalga oshiriladi, bu bizni tinglash kabi bunday nutq faoliyatiga yanada ko‘proq e’tibor berishga majbur qiladi. Tinglashni o‘rganish jarayoni turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bolalarni tinglashga o‘rgatishda og‘zaki usul (suhbat) faol ishlatiladi. Suhbat-bu ma’lumot emas, balki yangi materialni tushunish uchun ishning savol-javob usuli. Shunday qilib, suhbatda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi: gapishtirish uchun eshitish, tushunish uchun eshitish. Qo‘llab -quvvatlash bosqichida tushunish uchun eshitishni o‘rnatish amalga oshirishda tushuntirish savollar ishlatiladi, va sharhlab bosqichida-parafraz, qaysi nuqtai uning nuqtasi (to‘g‘ri tushundim.... Boshqacha aytganda..., Deb o‘ylayman...) Parafraz, tushuntirish masalalari bilan birga, o‘zaro tushunishga erishish uchun bir usuldir. Suhbatlarning muvaffaqiyati asosan savollarning to‘g‘riligiga bog‘liq. Savollar barcha bolalarga o‘qituvchi tomonidan beriladi, shuning uchun barcha bolalar javob berishga tayyor. Savollarni qabul qilishdan tashqari, suhbatda bolalarning javoblari va fikrlarini muhokama qilish mumkin. Eshitishni o‘rgatishning

muhim usuli-bu hikoya. Ushbu usul bolalarning savollariga javob bermaydigan materialning og‘zaki tushuntirish ekspozitsiyasini o‘z ichiga oladi”.¹

YAKUNIY NATIJALAR QISMI

Eshitish qobiliyati bu zarur sherkning biz tomonga yo‘naltirilgan pozitsiyasini to‘g‘ri tushunishdir. Eshitish qobiliyati ham boshqa sezgi organlariga o‘xshab insonning juda kichik, ya’ni ona qornida homilalik davridan boshlab rivojlanadi va insonning yosh xususiyatlariga qarab o‘zgarib, takomillashib boradi. Tug‘ilgandan boshlab ko‘pchilik bolalar tovushlarni anglaydilar va eshitadilar. Darhaqiqat, ular bu tovushlarni tug‘ilishidan oldin sezishni boshlaydi. Bolaning qulog‘i biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, juda erta davrlardan homiladorlikning 25 haftaligidayoq to‘liq rivojlangan bo‘ladi. Garchi bola tug‘ilish paytidan boshlab yetuk eshitish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, uning 100 foiz bo‘lishi uchun biroz vaqt zarur. Ba’zan amniotik suyuqlik ichkarida qolishi mumkin va uni singdirish uchun bir necha kun kerak bo‘ladi. Shu sababli ham bola dunyoga kelganida odatda birinchi oydayoq bolalar eshitish uchun sinovdan o‘tkaziladi. Agar bolaning eshitishida hech qanday nuqson bo‘lmasa unga gapirganingga bola ko‘zlarini sizning ovozingiz kelgan tomonga qarab siljitadi, u inson ovozini boshqa har qanday tovushdan ajratib oladi va bilib oladi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda bola 4 haftalik bo‘lganida atrofdagilarni o‘ziga jalgan qilish va muloqotni amalga oshirish uchun “yolg‘on yig‘i” ni amalgalashiradi va bu orqali o‘ziga e’tiborni talab qila boshlaydi. Bola 6 haftalik bo‘lganida ko‘rish va eshitish tizimini muofiqlashtira oladi va yaqinlarini tanib, ovoz kelgan tomonga bosh va ko‘z harakatlari orqali, soda mimikalar orqali javob qaytara boshlaydi. Bola yoshligidan ya’ni chaqaloqlik davridan unda biror bir kasallik aniqlanmasa, demak u sog‘lom va uning eshitishida muammo bo‘lmaydi. Bu orqali esa o‘z-o‘zidan bolada miya faoliyatida, fikrlash jarayonlarida muammo yuzaga kelmasligining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, tashqi muhitni to‘laqonli anglab olgan bola, eshita olgan, ko‘ra olgan, atrofni his qila olgan bola bu ta’sirlarga javob qaytarishni biladi va o‘z-o‘zidan tafakkurini shakllantira oladi.

XULOSA

Ushbu maqolada biz tinglash va eshitish organlari va ularning faoliyati bola tafakkuriga qanday ta’sir qilishini ko‘rib chiqdik. Bolaning kichik yoshidan, xususan, maktabgacha yosh davri barcha organlari salomatligi va ularning muofiq tarzda faoliyati uchun eng muhim yosh davrlaridan biri ekanligiga guvoh bo‘ldik. Ilova sifatida shuni qo‘sishma qilishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni, tinglashni, xotirani yanada mustahkamlashda pedagogik bir qancha usul, uslub, metodikalar mavjud. Ulardan biri tinglash qobiliyatini shakllantirishda

¹ <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/1559/1402>

musiqadan, ovozli dialoglardan, multipanoramalardan foydalanishdir. Bu usul orqali ham tinglash ham fikrlash ham mantiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga erishish mumkin. Pedagog-tarbiyachi ish jarayonida qanchalik izlanuvchan bo'lsa, maktabgacha ta'lif o'quvchi bolalari uchun shunchalik o'quv-mashg'ulot darslari qiziqarli va albatta, foydali bo'ladi. Ammo bu jarayon faqatgina tarbiyachi va o'quvchi o'rtasida emas, balki ota-on-a-tarbiyachi-o'quvchi bo'g'lnlari uzliksiz ishlaganida samarali yechim beradi. Shunday ekan farzandlarimiz sog'lom tanali va fikrli bo'lishi, ularning har jihatdan mukammal, yetuk, komil inson bo'lib yetishishlari uchun har birimiz mas'uliyatli holda birgalikda harakat qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Maktabgacha ta'lif muassasasida pedagogik kengash. V.Belya. –M., 2009.
2. Edited by J. Schriewer (Comparative estudies series; Volume 10). Discourse Formation in Comparative Education Frankfurt am Main; Berlin; New York; Oxford: Lang, 2000.
3. Maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutq faoliyati turi sifatida tinglashni o'rghanish-Sariqboyeva Zulfiya-ilmiy maqola. Manba: <https://newjournal.org/index.php/new>.
4. https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6488.
5. <https://interscience.uz/index.php/zamonaviy-fan-va-talim-tarbiya-m/>.